



UDK: 378.147

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14651973>

TALABALARNING O'QUV FAOLIYATIDA KITOBXONLIKNI O'RNI

РОЛЬ ЧТЕНИЯ В УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

THE ROLE OF READING IN STUDENTS' ACADEMIC ACTIVITIES

Ne'matov Ismoiljon Baxromjon o'g'li

Farg'ona davlat universiteti,

“Pedagogika nazariyasi va tarixi” mutaxassisligi magistranti

ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-8551-4921>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning kitob o'qishga bo'lgan rag'batini oshirish hamda kitob o'qishning foydalari va bu harakat orqali ta'lim jarayoniga qanday ijobiy ta'sir erish mumkinligi haqida so'z boradi. Shuningdek, tadqiqot ishiga doir empirik ma'lumotlar keltirilgan. Maqola so'ngida xulosalar va ishlab chiqilgan ilmiy-metodik tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: *Ma'naviyat, madaniyat, kitob mutolaasi, barkamol shaxs.*

Аннотация.

В данной статье говорится о повышении мотивации студентов к чтению книг в высших учебных заведениях и о пользе чтения книг, а также о том, как это действие может положительно повлиять на учебный процесс. Также представлены эмпирические данные по исследовательской работе. В конце статьи представлены выводы и разработанные научно-методические рекомендации.

Ключевые слова: *духовность, культура, чтение книг, гармоничная личность.*

Abstract.

This article talks about increasing the motivation of students to read books in higher education institutions and the benefits of reading books and how this action can have a positive effect on the educational process. Empirical data on the research work are also presented. At the end of the article, the conclusions and developed scientific-methodological recommendations are presented.

Key words: *spirituality, culture, book reading, well-rounded individual.*

KIRISH

Bugungi globallashuv va texnologiyalar asrida talabalar oldida ko'plab imkoniyatlar mavjud. Biroq, o'z bilimini yanada mustahkamlash va shaxsiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlashda eng samarali vositalardan biri hali ham kitob o'qish bo'lib qolmoqda. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning kitobxonlikka qaratgan e'tibori bu borada katta turtki bo'lmoqda. Prezidentning "Yurtimizning har bir fuqarosi kamida 100 kitob o'qishi kerak" degan chaqirig'i bejiz emas, chunki kitob o'qish yosh avlodni ilimli, ma'naviy boy, keng fikrlaydigan shaxs sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Kitob o'qish insonni nafaqat bilimli, balki keng fikrlaydigan va mehribon qiladi. O'qigan odamlar boshqalarning fikrlarini tushunishga va ularni hurmat qilishga moyil bo'lishadi. Kitob orqali yoshlar o'z sohalari bo'yicha chuqur bilim olishadi va kelajakdagi muvaffaqiyatlariga tayyorgarlik ko'rishadi. Shuningdek, o'qish ularga zamonaviy dunyo yangiliklaridan boxabar bo'lish, o'z qiziqishlarini rivojlantirish imkonini beradi. Shu tariqa, o'qish odati jamiyatda madaniyatni rivojlantirishning asosiy omillaridan biriga aylanadi. Kitob o'qishning yana bir foydali jihati - insonni ijodiy fikrlashga undashi. Bu jarayon orqali inson o'z hayotida duch keladigan qiyinchiliklarga ijodiy yechimlar topishni o'rganadi. Kitoblar bizni tarixiy voqealar, olimlarning kashfiyotlari, dunyodagi turli madaniyat va an'analar bilan tanishtiradi. Ayniqsa, badiiy kitoblar o'quvchini xayolot dunyosiga olib kirib, uning his-tuyg'ularini boyitadi va sezgirligini oshiradi. Yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bilan biz kelajakda bilimdon, mas'uliyatli va kuchli yetakchilarni tarbiyalaymiz. Shu bilan birga, kitob o'qishning kuchi yoshlarni salbiy odatlardan uzoqlashtirishda ham juda samarali hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kitob o'qishning dolzarbligi talabalar orasida katta ahamiyat kasb etmoqda. Ko'p talabalar vaqtlarini bekorchi ishlarga sarflab, bilim olishga bo'lgan qiziqishini cheklab qo'yishi mumkin. Kitob esa inson tafakkurini kengaytiradigan, dunyoqarashini o'stiradigan va muvaffaqiyatga erishish yo'lida asosiy qurollardan biri hisoblanadi. Kitob o'qishning sog'liq uchun foydalari ham isbotlangan. Kitob o'qish, ayniqsa, uyquni me'yorlashga va stressni kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitob o'qish kishi ongini tinchlantiradi va uyqu oldidan qisqa vaqt davomida o'qish insonni yaxshi dam olishga tayyorlaydi. Bu yoshlar orasida psixologik barqarorlikni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Buyuk mutafakkir Jaloliddin Rumiyning "Ko'zlaringni keng och va qalbingni toza tut – dunyo go'zalliklarini ko'rasan" degan so'zlari talabalarga dunyoni teran tushunishga va go'zallikni qadrlashga undaydi. Kitob o'qish esa shunga erishishning samarali yo'llaridan biridir. Rumiyning bunday hikmatli so'zlari talabalarining shaxsiy o'sishiga va o'z qobiliyatlarini rivojlantirishga ilhom beradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 14-dekabrda 781-sonli "2020-2025-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi Qarori qabul qilinib, unda quyidagi "ustuvor yo'nalishlar belgilab berildi:

- aholi, avvalo, yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish, nashriyotlar va ijodkorlar faoliyatiga ko'maklashish, bolalarga mo'ljallangan adabiyotlarni chop etishni qo'llab-quvvatlash;
- milliy va jahon adabiyotining eng sara namunalarini tarjima qilish, mutolaa madaniyatini yuksaltirish, respublikaning olis hududlarida va yoshga doir kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish;
- kitob savdosini tashkil etish tartiblarini soddalashtirish, yangi nashr etilgan kitoblarni yetkazish va axborot manbalarini tarqatish tizimini takomillashtirish;
- kitob yetkazib beruvchilarni zamonaviy ijtimoiy ehtiyojlarga moslashtirish, infratuzilmani yaxshilash, axborot-kutubxona markazlarini chop etiladigan bosma nashrlar va ularning elektron nusxalari bilan to'ldirib borish, elektron kitoblar yaratish, kitoblarni raqamlashtirish va elektron kataloglarni tuzish hamda tizimli ravishda yangilab borish;
- aholining kitobxonlik darajasi va kitobga qiziqishini tizimli o'rganib borish, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan loyiha va tanlovlarni tashkil etish, kutubxonachi kadrlar salohiyatini oshirish;
- xorijiy asarlarga onlayn buyurtma berish, ularni respublika hududiga olib kelish va tarqatish tizimini hamda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro hamkorlikni kengaytirish".

Dastur quyidagi 3 bosqichda amalga oshiriladi:

- birinchi bosqich – 2020-2021-yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bo'yicha tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish chora-tadbirlarini amalga oshirish;
- ikkinchi bosqich – 2022-2023-yillarda kitobxonlikka oid infratuzilmani mustahkamlash;
- uchinchi bosqich – 2024-2025-yillarda yoshlarning kitobxonlik madaniyatini jadal rivojlantirish, ularning intellektual salohiyati o'sishi hisobiga inson kapitali sifatini yaxshilash kabi muhim mezonlar belgilangan.

Kitobxonlikni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar samaradorligini baholash tizimini ishlab chiqish, "Eng yaxshi kitobxon hudud", "Eng yaxshi kitobxon mahalla", "Eng yaxshi kitobxon ta'lim muassasasi" kabi reytinglarni joriy etish va boshqa muhim vazifalar belgilangan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Ko'plab taniqli jamoat arboblari va muvaffaqiyatli insonlar o'z bilimini asosan kitoblar orqali oshirganlar. Ulug' ajdodlarimiz hamisha kitob o'qishga e'tibor qaratgan

va ularni ilm o'chog'i deb bilgan. Masalan, Alisher Navoiy va Ibn Sino kabi allomalar ko'plab ilmiy asarlar o'qib, o'z sohalarida ulkan yutuqlarga erishganlar. Bugungi kunda ham muvaffaqiyatli shaxslar orasida kitobxonlik yuqori darajada baholanadi. Ularning yutuqlari, ilmiy yondashuvlari va hayotiy tajribalarini tushunishda kitobning ulkan ta'siri borligini ko'rsatadi.

Kitoblar orqali insonlar hayotdagi to'siqlarni qanday yengib o'tishni o'rganishadi. Shaxsiy rivojlanish, o'z-o'zini tanish, hatto ijtimoiy muammolarni yechish yo'llarini o'rgatuvchi kitoblar talaba uchun qimmatli bilim manbai hisoblanadi. Talabalar kitob orqali ruhiy va aqliy jihatdan kuch topib, har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishga ilhom olishadi. Bu esa ularni kelajakdagi muvaffaqiyatga yetaklaydi.

Bugungi kunda talabalar kitoblarni faqat qog'oz shaklida emas, balki raqamli formatda ham o'qishlari mumkin. Raqamli yoki elektron kitoblar (e-kitoblar) talabalar uchun bir qator afzalliklarni taqdim etadi:

Raqamli kitoblarni smartfon, planshet yoki kompyuter orqali istalgan vaqtda o'qish mumkin. Kitoblar raqamli kutubxonada saqlanganligi sababli o'quvchilar ko'plab kitoblarni bir joyda olib yurish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Internet orqali ko'plab bepul yoki arzon e-kitoblar topish mumkin. Bu kitoblarga yetib borish ancha oson va xarajatlar kamayadi, ayniqsa, chet el adabiyoti yoki yetishmovchi kitoblarni topish imkoniyati oshadi.

Elektron kitoblarda shrift o'lchami, rang va fonni o'zgartirish mumkin, bu esa o'qishni osonlashtiradi va ko'zlarni charchatmaydi. Shuningdek, qidirish funksiyasi orqali kerakli ma'lumotlarni tez topish imkonini beradi.

Ba'zi talabalar uchun matnni tinglash o'qishga nisbatan qulayroq bo'lishi mumkin. Audio kitoblar eshitish orqali bilim olish imkonini beradi va ularni yo'lda, mashg'ulotlarda yoki boshqa band vaqtlarda tinglash mumkin. Bu esa vaqtni samarali boshqarish imkonini beradi.

Kitob tanlashda talabalar o'z qiziqishlari va maqsadlarini hisobga olishlari lozim. Quyida kitob tanlashda yordam beradigan ba'zi yo'nalishlar keltirilgan:

Fikrlashni rivojlantiruvchi kitoblar: Talabalarga zamonaviy falsafa, psixologiya yoki tanqidiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beradigan kitoblarni tavsiya qilish mumkin. Masalan, Jaloliddin Rumiy, Karl Yung yoki Mark Aurel kabi mutafakkirlarning asarlari.

Shaxsiy rivojlanish va motivatsiya kitoblari: O'z ustida ishlashni istaganlar uchun Napoleon Hill, Stiven Kovi yoki Robin Sharma kabi shaxsiy rivojlanish ustalarining kitoblari foydali bo'lishi mumkin.

Ixtisoslikka oid adabiyotlar: Talabaning o'qiyotgan yo'nalishiga mos ilmiy yoki kasbiy kitoblar uning mutaxassisligi bo'yicha bilimlarini kengaytiradi. Masalan, iqtisod yo'nalishidagi talabalar uchun Adam Smit yoki Jon Maynard Keynes, psixologiya

talabalari uchun esa Zigmund Freyd yoki Erik Erikson kabi mualliflarning asarlari qiziqarli va foydali bo'ladi.

Badiiy adabiyotlar insoniy munosabatlar, hissiyotlar va voqealar orqali talabalarni boyitadi. O'zbek adabiyoti vakillaridan Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Mirkarim Osim asarlari, shuningdek, jahon adabiyotidan Lev Tolstoy, Gabriel Garsia Markes va Jane Austenning asarlari o'qishga tavsiya etiladi.

Kitobxonlikni rivojlantirish bilan birga, chet tillarni o'rganishni istagan talabalar tanish kitoblarni o'sha tillarda o'qish orqali lug'at boyligini oshirishlari mumkin. Masalan, dastlab sodda badiiy kitoblarni yoki bolalar adabiyotini o'qish til ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali usul bo'lib xizmat qiladi.

Bu yo'nalishlar talabalarni nafaqat kitobxon qilish, balki ularning intellektual va shaxsiy rivojlanishiga ham katta hissa qo'shadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, kitob o'qish talaba hayotida muhim rol o'ynaydi. Kitoblar insonning intellektual rivojlanishiga, ruhiy holatini yaxshilashiga va ijtimoiy jihatdan mustahkamlanishiga yordam beradi. Shuning uchun har bir talaba ilmni oshirish va shaxsiy rivojlanish yo'lida kitobxon bo'lishi zarur. Prezidentimizning bu boradagi chaqiriqlari ham bejiz emas, zero, kitob xalqimiz ma'naviyatini yuksaltiradigan asosiy manbalardan biridir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Jurayev Sh.S. Abu Ali ibn Sinoning falsafiy qarashlarida baxt-saodat masalasi // Academic Research in Educational Sciences, 2 (Special Issue 1), 395-401 p.
2. Po'latov, Sh.N., Hindistonda pedagogik ta'limning rivojlanish bosqichlari. // "SCIENCE AND EDUCATION" Scientific journal Volume 1, Special issue 2020. 21-27 P.
3. Saidov S.A., Ibn al-Muqaffaning islom tarjima san'atiga qo'shgan hissasi. // "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" Scientific journal Volume 1, 2021. 332-336 P.
4. Sulaymonov J.B. Ibn Xaldun ijtimoiy-falsafiy qarashlarida axloqiy masalalar // Falsafa va huquq jurnali. – 2019 yil 1-soni. 42-45 betlar.
5. Shomurodov Z.K. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. Toshkent: O'qituvchi, 2011.
6. Sulaymonov J. Karimov N. Contribution of Abu Isa Tirmidhi to the Science of Hadith // International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJITEE) ISSN: 2278-3075, Volume-9 Issue-1, November, 2019. P. 593-599.